



# O'ZMU XABARLARI

## ВЕСТНИК НУУЗ

### АСТА NUUZ

#### MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL**  
**1997 YILDAN**  
**CHIQA**  
**BOSHLAGAN**

**2024**  
**1/12**

**Ijtimoiy-**  
**gumanitar**  
**fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

**ERGASHOV Y.S.** – f-m.f.d., professor.

**SHIRINOVA R.X.** – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.

**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.

**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.

**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.

**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.

**Yunusova X.E.** – t.f.d., prof.

**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.

**Mo'minov A.G.** – s.f.d., prof.

**Abdulayeva N.B.** – f.f.d., prof.

**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.

**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.

**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.

**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.

**Boltaboyev H.** – fil.f.d., prof.

**Rahmonov N.A.** – fil.f.d., prof.

**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.

**Sa'dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.

**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

**TOSHKENT – 2024**

## MUNDARIJA

### Tarix

Djurayev R. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash.....	4
Mavlanova S. Xalqaro miqyosda moddiy madaniy meros obyektlarining yunesko tashkiloti tomonidan muhofaza qilinishi .....	7
Matyakubov X. Xorazm davlatchiligi tarixshunosligi masalasiga doir ta'limotlar va qarashlar tahlili .....	11
Раджабов О. Региональное сотрудничество и его результаты на железных дорогах Центральной Азии: исторический анализ .	14
Saparbayeva E. Buxoroda rus diasporasi shakllanishining tarixiy ildizlari. (XIX asrning 80-yillaridan va XX asrning 40-yillarigacha).	17
Xatamova Z.F. Qo'qon xonligi moliya tizimida suv xo'jaligi masalasi.....	20
Xoshimjonov Sh. Turkiston ASSRda kichik sanoat korxonalarining davlat tasarrufiga olinishi .....	22
Ergasheva B. Avestoda qiz bola tarbiyasiga oid qarashlar.....	25
<b>Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik</b>	
Abduvaliyeva D. Analyzing the impact of artificial intelligence tools on english writing skills development.....	28
Abduraxmonova T. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi fanini o'qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali takomillashtirish.....	31
Adilov S. Sport kurashlarida yuqori malakali kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlari va texnik-taktik harakatlar samaradorligining qiyosiy tahlili .....	33
Azimova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida meyorlangan mashqlar orqali darsdan tashqari tezkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning innovatsion vosita va uslublari .....	37
Allayarova Z., Elboyeva Sh. Dealing with problems related to teaching heterogenous classes .....	40
Asqarova M. Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik xususiyatlari .....	42
Ahmedova O. Oziq-ovqat texnologiyasi sohasida ingliz tili terminologiyasini o'qitishning o'ziga xos usullari(xorijiy davlatlar tajribasi misolida) .....	45
Badelbaeva Y. Writing, editing and publishing scientific articles using artificial intelligence.....	48
Бахриева Ш. Преподавание русского языка как неродного и как иностранного.....	51
Begmatova D. Oliy ta'limda mutaxassislar tayyorlashda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish usullari.....	54
Berdiyev M. Kimyo fanidan o'quvchilarning eksperimental tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi.....	57
Berdikulov Ch. Yoshlarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda ma'naviy kollaborasiyaning o'rni .....	59
Nurullayeva B. Ota-onaning bolaga qadriyatli munosabatining psixodiagnostikasi .....	61
Boltayeva M. Oliy ta'limda tarix ta'limini raqamli ta'lim muhitida tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari .....	64
Davidov B. Talabaliq davrida o'zini o'zi boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	67
Davronova Z. O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishning mavjud holati (DTS, o'quv dasturlari tahlili).....	70
Djalilov X. Bo'lajak temir yo'l transporti soha mutaxassislarining kasbiy-boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni .....	73
Djumayeva D. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda emotsional liderlik sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi .....	75
Djumanayeva Z. Teaching legal english in multilevel classes.....	78
Yeshmoratova A. Google disk orqali talabalarga laboratoriya mashg'ulotini o'tishda "sindikat" metodidan foydalanish.....	80
Jaynarov O. Ko'chma mashg'ulotlar jarayonida tinglovchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmi.....	83
Jumayev S. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi yuksalishidagi o'zgarishlar va uni baholash mezonlari hamda indikatorlari .....	86
Jumaniyozova N. Professional deformatsiyaning kasbiy so'nishga ta'sir mexanizmlari. ....	89
Jumaniyozova I. Shaxsiy rivojlanishda perfektsionizmning o'rni va subektiv farovonlikka ta'siri .....	92
Jumaniyozova N. Abu Nasr Forobiy falsafasi va uning bugungi insoniyat hayotidagi ahamiyati .....	95
Zakirova X. Effective analysis of linguistic and cultural features of interpersonal relations in urban discourse.....	98
Zarifov Sh. Biologiyani o'qitishda Blum taksonomiyasi topshiriqlaridan foydalanish metodikasi (8-sinf misolida).....	101
Ibragimova Z. Ilk o'spirinlik davri o'quvchilarida ijtimoiy tarmoqlarga tobelik.....	104
Ibragimova Sh. Interactive methods in project-based learning classes.....	106
Ismatillayeva Y. Steam ta'lim texnologiyasi asosida tabiiy fanlarni o'qitishda evristik metodning ahamiyati .....	108
Kalekeeva T. O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalari va ularni tanlash metodologiyasi.....	111
Kamilov D. "Sinkretizm" tushunchasining diaxronik muammolari .....	114
Karimova M. Comparative evaluation of conventional and contemporary methods in teaching foreign languages .....	118
Komilova B. Maktabda odam va uning salomatlik fanini o'qitish jarayonida xalq maqollaridan foydalanish .....	120
Kurbonboyev X., Babadjanova Sh. Maktabgacha ta'lim muassaslarida umumrivojlantiruvchi mashqlarga o'rgatish metodikasi .....	122
Kushakov Y. Chet tili ni o'qitishda zamonaviy metodlarning muhim xususiyatlari .....	125
Kushanova M. O'smirlarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi.....	128
Qodirov M. Oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashning mavjud holati va muammolari .....	131
Qodirova M. Bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlari.....	133
Mamasaliyev M. Postmodern jamiyat va uni xarakterlovchi o'zgarishlar .....	135
Maxmanazarova M. Dunyo tarixida va zamonaviy O'zbekistonda inklyuziya ijtimoiy hodisa sifatida.....	138
Meyliyev A. Oliy ta'limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini strategik boshqarishning tizimli modeli .....	141
Мирзابدullaева Д. Эмоциональная нестабильность как фактор обострения конфликтов .....	143
Mirzayev I. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarning rivojlanish yo'li (ma'naviy-madaniy misolida).....	146
Mullaboyeva N., Soyimnazarov N. O'smirlar orasidagi bullingda koping strategiyalarining o'rni .....	149
Muratova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvining xususiyatlari .....	152
Murodova S. O'zbek milliy musiqasi va ma'naviy merosi .....	154
Musayeva U. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbiy kompetentligini aniqlash indikatorlarini takomillashtirish .....	156
Mustafayeva S. Til madaniyatini yaratish va saqlashning asosiy vositasi sifatida .....	159
Mustafoyev O'. 10-sinf fizika darsligidagi "Gravitatsiya maydonidagi harakat" mavzusini sun'iy intellekt orqali o'rganish.....	162
Mухамеджанова С. Обучение лингвопрагматическому общению студентов-медиков на иностранном языке .....	166
Navruzova X. Qo'shma gaplarni nutqiy ko'nikmalar yordamida o'qitishning tajribaviy tadqiqi.....	169
Norova M. Xorazmda tasavvuf ta'limotining vujudga kelishi va rivojlanishi .....	171
Ortiqov M. Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida temir yo'l muhandislarini o'qitish jarayonini takomillashtirish .....	174
Rasulova M. O'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish orqali ish joyida malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	176

<b>Raximov U.</b> Yosh futbolchilarga to'pni boshqarish va tezkorlik qobiliyatini oshirishida maxsus mashqlar va harakatli o'yinlardan foydalanish uslubiyati .....	179
<b>Raximova S.</b> O'zbekistonning iqtisodiy rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining o'rni .....	182
<b>Raxmatova Y.</b> Axloqiy qadriyatlarining axloqiy idealni shakllantirishdagi ahamiyati .....	184
<b>Sadullaeva K.</b> Studiychilik – zamonaviy o'zbek teatr estetikasiga yangicha nazar (Bahodir Yo'ldoshevning “Diydor” teatr-studiyasidagi faoliyati misolida).....	186
<b>Saidkulov N.</b> O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga asoslangan innovatsion islohotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari	189
<b>Suyunov R.</b> Akademik litseylarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirish .....	192
<b>Taylakova D.</b> Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlari .....	194
<b>Tillayev A.</b> “Kompyuter grafikasi” fanini o'qitishda multimedia texnologiyalardan foydalanish .....	196
<b>Toxirov F.</b> Kollaborativ ta'lim asosida mobil ilovalarni loyihalovchi onlayn platformalarning didaktik imkoniyatlari .....	198
<b>Toshova Sh.</b> Bo'lajak tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish .....	201
<b>To'rabekova A.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishda axborotlar bilan ishlashning o'rni .....	203
<b>Turabova S.</b> Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi .....	205
<b>To'rayev R., Sattorov S., Madayeva M.</b> O'rgatuvchi elektron dasturiy vositalar turlari va yaratish algoritmlari .....	208
<b>Turayev S.</b> Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini raqamli texnologiyalar asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash .....	211
<b>Турсунмуротов Т.</b> Методологические аспекты исследования проблем национальной безопасности государства .....	214
<b>Umirov S.</b> Chet tili o'qitishda o'quv materiallariga doir muammolar: dunyo tajribasi .....	217
<b>Usmonov I.</b> Abu Mansur Moturidiyning “Ta'vilot al-Qur'on” asarida nubuvvat masalasi .....	220
<b>Xidirov M.</b> Nazariy bilim va amaliyot o'rtasidagi tafovutlar va ularni bartaraf etishning falsafiy jihatlari .....	223
<b>Xidirov X.</b> Jamiyatda kambag'allik va qashshoqlikni bartaraf etish mexanizmlari .....	226
<b>Xodjayeva Sh.</b> Ispan tili o'qitishda multimediuadan foydalanish samaralari .....	229
<b>Xoliqov Y.</b> Globallashuv sharoitida millatlararo muloqot .....	231
<b>Xolmurodova O.</b> Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish yo'llari .....	234
<b>Xolov O.</b> Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni shakllantirishning ahamiyati .....	237
<b>Xujaqulov A.</b> Gidrologiya yo'nalishi talabalarida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	239
<b>Hayridinov A.</b> O'zbekiston yoshlari ongida milliy qadriyatlarining shakllanishi va ommaviy madaniyatning ta'siri.....	242
<b>Sharopov F.</b> Sun'iy intellekt vositasida neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi maxsus fanini o'qitish .....	244
<b>Shodmonov F.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid tajribalar samaradorligi .....	247
<b>Ergashev I., Xudoynazarov A.</b> Yoshlar ishtirokini oshirishda yoshlar parlamentlarining o'rni (xalqaro va O'zbekiston misolida).....	250
<b>Ergasheva M.</b> Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun uy ta'limini tashkil etishda xorij tajribasi .....	253
<b>Ergasheva S.</b> Madaniyat va san'at sohasi menejmentini rejalashtirish tanlash modellari.....	256
<b>Eshnazarov U.</b> Raqamlashtirilgan klaster muhitida informatika o'qitishning metodologik asoslari .....	257
<b>Yuldashov F., G'afforova G.</b> Yoshlar ehtiyoj-manfaatlari va intellektual salohiyatining o'zaro uyg'unligi: ijtimoiy-falsafiy tahlil .....	259
<b>Yuldashova G.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik refleksiylash qobiliyatini rivojlantirishda pedagogik mahoratning o'rni.....	262
<b>Yunusova M.</b> Mahallalar faoliyati samaradorligini oshirish va ular transformatsiyasining istiqbollari.....	264
<b>Yusupov A., Sadikova M.</b> Modeling of the system of traffic activity of vehicles and the driver in the direction .....	267
<b>Yakupov A.</b> Orol bo'yi xalqlari ijtimoiy munosabatlari rivojida milliy va diniy qadriyatlar ahamiyati .....	270
<b>Yaxshiboyeva G.</b> Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tili o'qitishning zarurati .....	273
<b>Filologiya</b>	
<b>Ablakulova I.</b> Tarjima asarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ko'zga tashlanadigan xatoliklar va kamchiliklar talqini .....	276
<b>Alieva E., Abdullaeva G.</b> Коммуникативно-синтаксические особенности конструкции ит в очерках м. цветаевой .....	279
<b>Allayarova Z., Niyazova F.</b> The dynamics and formation of pedagogical terminology in the uzbek language: international influences, morphological adaptation, and lexical integration.....	282
<b>Bakirov Q.</b> Eski turkiy til davri vaqtini ifodalovchi o'z qatlam leksemalarning hozirgi ayrim turkiy tillarda ifodasi .....	285
<b>Bekmurodova M.</b> O'zbek va ingliz o'qituvchilaridagi muloqotning lingvomadaniy xususiyatlari tahlili.....	288
<b>Bekmurotova Sh.</b> Tilshunoslarning juft so'zlar haqidagi qarashlari .....	291
<b>Bolliyeva M.</b> Balladada lirik “men” .....	293
<b>Dadamirzayeva M.</b> Fransuzcha qiyosiy frazeologik birliklar va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari.....	295
<b>Донглианг Л. О</b> «Трагическом мировоззрении» Ивана Бунина на примере «жизни Арсеньева».....	298
<b>Yoqubov U.</b> Yuridik ingliz tili terminologiyasi tarjimasida yuzaga keladigan asosiy muammolar va yechimlar .....	301
<b>Jalolova G., Yusupova Sh.</b> Adjectives and modal verbs used in horoscopes and their impact on readers.....	303
<b>Jumaniyozova N.</b> Forensic linguistics: its origins and development.....	306
<b>Karimova G.</b> The relationship of translation theory to other languages.....	309
<b>Kozimova Z.</b> O'zbek tilida teatr terminologiyasining boyish manbalari .....	311
<b>Qodirova M.</b> The role of author's background in shaping the chronotope in a literary work .....	314
<b>Masharipova Y.</b> Tarjimada leksik transformatsiyalar tasnifi .....	316
<b>Mirzababayeva K.</b> Generational theory as a key to understanding communication processes in society .....	319
<b>Musulmonov K.</b> Lingvistik ekspertologiyaning shakllanish va rivojlanish tarixi .....	322
<b>Musurmanov U.</b> Important part of language teaching – vocabulary.....	325
<b>Nazirova Sh.</b> Ingliz va o'zbek tillarida maqollar va ularning umuminsoniy xususiyatlari .....	327
<b>Niyazova F.</b> Thematic classification of pedagogical terms in english and uzbek .....	330
<b>Raufov M.</b> Sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalar .....	333
<b>Rashidova G.</b> Collocation limitation among L1 and L2 learners .....	335
<b>Ro'zibayeva N.</b> Xalq og'zaki ijodi namunalarni tarjima qilishda muqobilsiz birliklar masalasi .....	338
<b>Rustamov M.</b> O'zbek tilshunosligida murakkablashgan sodda gaplarning tadqiqi xususida .....	340
<b>Sadullaeva M.</b> Essential tools of psychological analysis to aid in the exploration of Saidi's spiritual world.....	342
<b>Saloydinova N.</b> Qurilishga oid matnlarda tarjima jarayonida sinonimlarning qo'llanish usullari .....	344
<b>Sa'dullayeva M.</b> O'zbek shevalaridagi ba'zi ko'p ma'noli so'z ma'nolarida o'zgarishlar .....	346
<b>Siddikova I., Nartayeva M.</b> Stomatologik terminlarning sinonimik munosabatlari .....	348
<b>Солнева М.</b> Актуальные проблемы когнитивной фонологии .....	351
<b>Xamidova M.</b> O'lmas Umarbekov asarlari tilining gender xususiyatlari .....	354
<b>Xudayberganova M.</b> Reklama tarixi va uning rivojlanish bosqichlari .....	357
<b>Khujaeva S.</b> The role of folklore in childhood development and learning .....	360
<b>Sharipova N.</b> O'zbek nutqiga xos paremiyalarning manbaviy va ilmiy-nazariy asoslari .....	363
<b>Shukurov O.</b> O'zlashmalar dunyo tillari lug'at boyligining mushtarak manbasi sifatida .....	365
<b>Эгамбердиева Ш.</b> Риторические стратегии в рекламном дискурсеи их влияние на аудиториюна материале узбекского, английского и русского языков .....	368
<b>Ergashova S.</b> Eshqobil Shukur she'riyatida badiiy obraz takomili.....	371
<b>Ergashova Sh.</b> O'zbek shevalarida ikkilamchi nomlanish hodisasi .....	374



**Malika NOROVA,**  
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, f.f.d  
E-mail: n.malika@gmail.com

Buxoro davlat texnologiya instituti professori, f.f.d G.Navro'zova taqrizi asosida

### EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF MYSTIC DOCTRINE IN KHORAZM

Annotation

The article talks about the cultural and spiritual environment of Khorezm and Sufism schools. Najmuddin Kubra's ways of Sufism. It is mentioned in the doctrine of Kubraviya. The article talks about the spiritual heritage of Saifiddin Boharzi, one of Najmuddin Kubro's students.

**Key words:** Teachings of Kubraviya, Sufi, Sufism, Sheikh, Tammatul Kubaro, Kuniyat, Kubra, Najmuddin.

### ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ МИСТИЧЕСКОЙ ДОКТРИНЫ В ХОРАЗМЕ

Аннотация

В статье говорится о культурной и духовной среде Хорезма и суфийских школах Наджмуддина Кубры. Упоминается в учении Кубравии. В статье говорится о духовном наследии Сайфиддина Бохарзи, одного из учеников Наджмуддина Кубро.

**Ключевые слова:** Учение Кубравия, суфий, суфизм, шейх, Тамматул Кубаро, Куният, Кубра, Наджмуддин.

### XORAZMDA TASAVVUF TA'LIMOTINING VUJUGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Maqolada Xorazmdagi madaniy ma'naviy muhit, va tasavvuf maktablarihaqida so'z boradi. Najmiddin Kubroning tasavvuf yo'llari. Kubraviya ta'limoti haqida so'z boradi. Najmiddin Kubroning shogirdlaridan biri Sayfiddin Boxarziy ma'naviy merosi haqida maqolada gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Kubraviya ta'limoti, sufiy, tasavvuf, shayx, Tammatul Kubaro, kuniyat, Kubro, Najmiddin.

**Kirish.** Ona diyorimizning har bir go'shasi azaldan ilmu irfon beshigi fan va madaniyat ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan. Ushbu zaminda o'tgan buyuk insonlarning nomlarini ulug'lash, ularning bebaho merosini har tomonlama o'rganish va targ'ib etish, ma'naviy qudratimizga qudrat qo'shish shubhasiz.

Mashhur tasavvuf Shayxi kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubroning Asl ismlari Ahmad ibn Umar ibn Yosir al-Xevakiy al-Xorazmiy bo'lib 1145 yil Xorazmda tavallud topgan. U yoshligidan nihoyatda ziyarak yuksak aql zakovat sohibi bo'lgan. Ilm fanga bo'lgan intilishi uni o'z zamonasining turli hil muammolarini hal qila olgan. Shu boisdan u xalq orasida Najmiddin Kubro ya'ni "najmiddin" din yulduzi, "kubro" ulug' abuljannob ya'ni parhezkorlar otasi nomi bilan mashhur bo'lgan hamda "Tammatul Kubaro", yani ulamolarning etug'i, ulug'vori va ilm balosi degan laqabni oladi. Buning yoniga "Najmiddin" – "dinning yulduzi" degan martabali unvon qo'shilib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashxur bo'ladi" - deyilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Abuljannob" so'zi esa Najmiddin Kubroning kuniyatidir. "Kuniyat" - arablarda hurmat yuzasidan beriladigan laqabdir. Jomiy hazratlari yozadilarki: – "Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolardan hadis ilmini o'rganib qaytayotganida, yo'lda bir kecha hazrati Payg'ambarimizni tushida ko'radi va ul zotga murojaat qilib, "menga kuniyat bag'ishlang" deydi. SHunda hazrati Payg'ambar Najmiddinga: - "Sening kuniyating Abuljannob – dunyodan ijtinob, parhez etuvchi bo'ladi", deb marhamat qiladilar. Shundan keyin Kubro "Jannob" laqabini olishga musharraf bo'ladi. "Jannob – ijtinob qiluvchi, poklik parheziga amal etguvchi ma'nosidadir".

Abduraxmon Jomiy o'zining "Nafahotul uns" asarida yozishicha Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga boradi. Misrda Ro'zbehxon Vazzon Ali Misriy dargohida ta'lim oladi. Ro'zbehxon uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiyalagan hatto qizini nikohlab berib, o'ziga kiyov qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Najmiddin Kubro Misrda Sharq falsafasi bilan shug'ullanadi va uning sirlarini o'rganadi. U hadis ilmi bilan qiziqib Nishopurda Abul Makkorim Lubon va Abu Jafar Samdloniy, Tabrizda Abu Mansur Xaft, Makkai Mukarramada Abu Muhammad Tabbex va Iskandariyada Abu Tohir Salafiy xizmatlariga etishib ulardan hadis ilmlarini o'rganadi.

Lekin yuqorida olgan bilimlar ilm talabi Najmiddinni qoniqtirmasdi, u yuqoridagi olimlardan olgan ilmlarini rivojlantirib yangi yo'nalish tariqatdan saboq olish uchun dunyo kezdi. Najmiddin Kubroning tariqat yo'lidagi pirlari Shayx Ro'zbehxon Misriy, Shayx Ammor Yosir, va Shayx Ismoil Qasriylardir. Ularning ustozlari Shayx Abulnajib Suhravardiy bo'lib, Jomiyning yozishicha, zohiriy va

botiniy ilmlarda barkamol kishi bo'lgan, u ko'p risola va kitoblarni yozib so'fiylik nisbatida Shayx Ahmad G'azzoliyga borib tutashadi. Suhravardiy faqirlik bilan futuvvatni (javonmardlik) birga olib tushintiradi. Faqirlik uning talqinida faqat qashshoqlik, bechoralik emas, "faqirlik –xudo oldida talabkorlik, oqizlik, ammo bandalari oldida adolat va saxovat posboni bo'lish, hammaga har erda yordam ko'rsatishdir" Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vassalamning:- "Beruvchi qo'l oluvchi qo'ldan afzaldir" degan muborak hadis shariflariga muvofiq, "bag'ishlovchi qo'l – faqr eshigini ochuvchidir", degan fikrlarni bayon qilgan Suhravardiy boylikni qoralamaydi, balki zulmu sitamni va talonchilikni, haromxo'rlikni va xasislikni mazammam etadi. Abulnajib Suhravardiy shogirdlari bo'lgan Shayx Ro'zbehxon Misriy, Shayx Ammor Yosir, va Shayx Ismoil Qasriylarda qalb saxovati bilan birga murid tarbiyasida qattiqqo'l bo'lish, botiniy ko'z bilan muridning xayollarini, ruhiyatini uqib olish va unga ruhiy ta'sir o'tqazish qobiliyati yaxshi rivojlangan edi. Masalan:- Shayx Ammor Yosir solikning "noqisllarni takmil etish va muridlarni tarbiyalashda, ularning tushlari va fikrlarini ta'bir etishda, ikkilanishlarni bartaraf etishda shuhrat qozongan" bo'lsa, Shayx Ro'zbehxon Misriy "aksar vaqt istig'roq maqomida bo'lib", vajd va ilhom ichida yurar, ilohiy ma'rifatdan zavqi toshib, bu holatni muridlariga yuqtirardi. Shayx Ismoil Qasriy bo'lsa, raqs samo', imo – ishoralar yo'li bilan murid qalbini rom etib, o'zini poklash va shu orqali ilohiyotga muhabbatni singdirishda mashhur bo'lgan. Har uchala Shayx ham tariqatni shariatdan tashqari deb tasavvur qilmaganlar. O'zlari sunniy mazhabining izchil tarafdorlari hisoblanganlar.

Najmiddin Kubro ulardan har tomonlama saboqlarni olgach yana safarga chiqadi. U Tabrizga Abumansur Hafdah oldiga borib shogird tushadi, u erda hadis ilmiga bag'ishlangan "Sharhus-sunna" kitobidan saboq oladi. Bir kun muridlar madrasa darsxonasida saboq olib o'tirishganida u erga bir darvesh kirib keladi. SHunda Najmiddinda kitob o'qish majoli qolmaydi va darveshga ko'zi tushishi bilan qalbidan mehrlil bir o'zgarish yuz beradi. Darvesh chiqib ketganidan keyin Najmiddin saboqdoshlaridan:- "Bu odam kim?" deb so'raydi.

Ular "Bu shu erlik hazrat Bobo Faraj Tabriziydir" deyдилar. Shu kuni kechasi bilan Najmiddin uxlamay chiqadi va erta tongdanoq uzoqi va saboqdoshlariga: - "Yuringlar, Bobo Faraj oldiga boramiz" deydi. Ular boboning xonaqosiga borganlarida, xizmatkor ularni kelganligini darveshga aytadi. Bobo Faraj xizmatkoriga: "Agar ular Tangri Taolo dargohiga kelganday bo'lib kira olsalar, kirsinlar" deydi. Shunda Najmiddin darrov kiyimlarini echadi, hamxonalari ham unga ergashadilar. Ular Bobo Faraj huzuriga kelib indamay bir chekkada o'tiradilar. Bobo Farajning tanasi quyosh parchasiday porlab uning

yirtiq to'nini yoriqlaridan nur tarala boshlaydi. Birozdan so'ng Bobo Faraj o'rnidan turib to'nini echib Najmiddinning ustiga yopadi, Najmiddin uchun bu yirtiq to'n tabarruk tuhfa edi. So'ngra Bobo Faraj Najmiddinga qarab, "Sening daftaru kitob o'qish vaqtning o'tdi, balki o'zing endi butun olam sardaftari bo'ladigan vaqt etdi" deydi.

Bobo Farajning xonaqasidan chiqqanlaridan so'ng Najmiddinga ustoz "Sharhus-sunna" kitobidan ozgina qoldi, bir-ikki kun shug'ullansang tugatasan, keyin qaerga borsang ixtiyoring deydi. Najmiddin ustozining maslahatiga quloq solib darsxonaga kiradi. Ammo shu zahoti Bobo Faraj kelib unga tanbeh beradi. "Hozirgina ilm yuqindin ming farsax uzoqlashgan eding, endi yana ilm qoshiga keldingmi?"-deydi. Shundan so'ng Najmiddin o'qishini yig'ishtirib riyozat bilan mashg'ul bo'ladi.

Najmiddin Kubroning holatlari shunday ekan, u kishi ba'zan birdan jo'shib, o'zga kayfiyatga kirib, vujudlari balqib ketar ekan, ba'zida esa, xazin va o'yanchan, g'oyat kamgap bo'lib qolar ekanlar. Ba'zan bo'lsa, xushchaqchaq va ochiq chehra bilan suhbatga berilar, g'oyat nozik did va o'tkir so'zlar bilan muridlar qalbiga olovli cho'g' tashlar, turli ishoralar, harakatlar, ruhiy karomatlar orqali atrofda gilarni hayratga solarkan. Shayx bag'oyat zukko, salobatli, haybatli kishi bo'lgan. Kechalari aksar bedor o'tirib, ibodat qilib, surunkali Ro'za tutishni odat qilib, ilhomli damlarda xonaqoh hovlisini kezib xushnud sayr etar ekan.

Najmiddin Kubro – tasavvufning mashhur Shayxlaridan biri "Kubraviya" tariqatining asoschisidir. Najmiddin Kubro Xorazmga 1185 yilda qaytib keladi. U 25 yildan ortiq umrini ilm olishga bag'ishlaydi. U Xorazmga qaytgach, katta xonaqoh qurdirib Kubraviya ta'limotiga asos soladi. Uning qo'li ostida yuzlab odamlar tarbiyalanib tahsil olishadi.

Insoniyat-ma'naviy olamida eng etuk va eng murakkab ta'limot tasavvuf ilmiy ta'limotidir. Tasavvuf ta'limoti Ollohga intilish bo'lib, o'zligini anglab, qalbining ochilmagan imkoniyatlarini ishga solish, bu bilan Ollohning karomat nuridan bahramand bo'lish uchun o'z kamolati sari yo'l tutib, ya'ni inson o'z ruhini Ollohga yaqinlashtiradi, o'z ruhini Olloh qudratiga bag'ishlashga yo'l tutadi.

Tariqat ilmi o'zi uchun mujassamlashtiradigan odob-ahloqdir. Ma'rifat ilmi avliyolarning o'zini anglab etishi sari yo'l tutish, nafsi tiyishi, o'zlikni yo'qotishidir. Haqiqat ilmi esa o'z ruhini Tangri qudrati bilan bog'lashdir.

Kubroviya tariqati ham Quroni karim va Hadisi sharifdagi ta'limot asosida shakllangandir. Komil insonni tarbiyalash bu tariqatning asosiy vazifasi bo'lib, Shayx Najmiddin Kubroning hayoti katta saboq, ulkan maktabdir. Kubroviya tariqatida talab, sadoqat, ishq, muhabbat, oshiqlikning inson uchun naqadar zarur ekanligi ta'kidlanadi. U shoirona til bilan shunday deydi:

Ishq dardi g'arib tanimdagi jon bo'lg'ay. Dard cheksa kishi ahiyri inson bo'lg'ay. Oshiq manu do'zax men uchun otashgoh, Boshqa uchun u bir zimiston bo'lg'ay.

Najmiddin Kubro o'z ta'limotida inson omilini birinchi o'ringa qo'yadi. U inson tafakkuri kuchiga yuksak baho berib shunday deydi: – "Valiylik inson bolasiga azaldan nasibadi, chunki odam Ollohning suygan mahluqi, parvardigor odamga ong-aql bergan, botiniy nur bergan, uni barcha mavjudotdan afzal qilib yaratgan.

Yurmoq uchun Haq yo'liga etmoq shart, Boshqasidan ko'zni yumib ketmoq shart, Elga shifo baxsh etu, och ko'zlarni Olam hamamul, unga nazar etmoq shart.

Shayx Najmiddin Kubro o'nlab asarlar muallifi hamdir. Jumladan, uning "Fiodobus solikin" ("Soliklar odobi haqida"), "Risola attul xayf ul – xoim an lavmat il – loim" ("Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etuvchi malomatiylar haqida"), "Favoyihul jamol" ("Go'zallikni egallash"), "Ruboiylar to'plami", "Favoyihul jamol va favotihul jalol" ("Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi"), "Al-usul al-ashara" ("O'nta usul"), "Risola at-turuq" nomli asarlarida Ollohni tanish, halollik va mardlikni ulug'lab, ilm olish va ilm berish savobi barcha mo'min musulmonning burchidir degan fikrlar oldinga surlilgan. Uning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmatlari – javonmardlik g'oyalari tariqatga joriy etish bo'ldi. Natijada mardlik va poklik, qahramonlik va fidoyilik, ma'rifat va jismoniy-ruhiy qudrat birlashtirildi, inson kamolotida ahloqiy yuksaklik, vatanparvarlik g'oyalari qo'shilib ifodalandi.

Najmiddin Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, sahovat va mardlikka da'vat etdi. Uning muridlari orasidan Shayx Najmiddin Bog'dodiy, Shayx Farididdin Attor, Sultonul ulamo Shayx Bahovuddin Valad, Shayx Sa'diddin Hamaviy, Shayx Sayfiddin Boharziy, Shayx Jaloliddin Geyliy singari ko'plab musulmon olamiga dong'i ketgan valiy insonlar etishib chiqqanlar. Najmiddin Kubroning muridlari ko'p bo'lgan. Eron, Arabiston, Kavkaz, Shomu, Iroqning turli joylaridan kelib, ulug' Shayx ma'rifatidan bahramand bo'lganlar,

suhbatlarida ishtirok etganlar. Uning muridlari Kubroviya tariqatining davomchilari hisoblanadilar.

Shunday muridlardan biri Sayfiddin Boharziydir. U kishi Xurosondagi mashhur so'fiy Shayxlaridan biri sifatida nom qozongan (Hijriy 7-asr). Xorazmda Najmiddin Kubro muridlaridan biri bo'lib, Abduraxmon Jomiyning ma'lumotiga qaraganda, Najmiddin Kubroning Sayfiddin Boxarziyni ikki marta chilla o'tirishga buyuradi. Va ikkinchi marta chilla ibodati tugaganidan so'ng uni Buxoroga kubraviya tariqatini davom ettirish uchun yuboradi. Sayfiddin Boxarziy ko'p yillar davomida Buxoroda yashaydi va katta mavq'ga erishadi. Xalq unga "Shayx-ul olam" degan unvon berdi. Mo'g'ul amirlari oldida mavqei baland bo'lgan. Ato Malik Juvayniyning yozishicha, mo'g'ul amiri Manguxonning onasi Sarkuti bika (mehribon va rahm-shavqatli inson bo'lgan (vafoti hijriy 649y)), ilm - ma'rifatni yoqori ko'tarish maqsadida madrasa qurdiradi va bu madrasaga ishonchli vakil sifatida boshqaruvni Sayfiddin Boxarziyga topshiradi. Umrining oxirida shu erda vafot etadi. Hozirda u kishining qabri Buxoro shahrining Fathobot mavzesida joylashgan. Sayfiddin Boxarziy haqida bizgacha juda kam ma'lumot etib kelgan. U haqida yozilgan asarlardan hajm bo'yicha eng katta asar bizgacha etib kelgani va fors tilida nashr etilgan "Risolai ishq" asaridir[2]. Bundan tashqari Sayfiddin Boxarziyning kichik hajmdagi yozib qoldirgan vasiyatlarini bizgacha etib kelgan va nashr etilgan[3]. Shuningdek Sayfiddin Boxarziyning ruboiylar jamlanmasi nashr etildi. Bundan tashqari, uning nevarasi Abul Abulmufoxir Yahyo ibn Ahmad ibn Said al-Boharziy (vafoti 736 hij) so'fiylik ta'limotiga haqidagi fikrlarini o'zining "Avrod al-ahbob va fusus al-adab" kitobida aytib o'tgan[4]. Sayfiddin Boxarziyning so'fiylik ta'limotiga oid fors va arab tilidagi baytalarini odatda bir qator qo'lyozma manbalarda va u kishining muridlariga aytgan ma'ruzalari, so'zlagan nutqlari muhrlangan bizgacha[9] etib kelgan manbalarda ko'rishimiz mumkin va bu manbalar Sayfiddin Boxarziy aqliy salohiyatining yana bir qirrasini ochib beradi. Sufiylik ta'limoti uzoq tarixga ega va bu tarixiy jaryonda ba'zi sufiy Shayxlari o'zlarining ma'ruzalari bilan katta mavqega egallaganlar. Mashhur so'fiylik ta'limotiga oid majlislar Bog'dodda Abu Ali Dohqiq tomonidan, Nishopurda Qushayrining ustoz va qaynotasi Abu Said Abul Xayr tomonidan tashkil etilgan. Dohaqiqat so'fiy Shayxlari muridlari shu majlislardagi ma'ruzalari orqali ularga so'fiylik ta'limotidan ta'lim berishgan va sufiylikka tayyorlaganlar. Odatda muridlar ustozlari aytgan ma'ruzalarni yozib borishga harakat qilishar edi. Bunday muridlarning yozuvlarini ularning shaxsiy yozishmalarida, o'zlarining Shayxlari haqida yozgan asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, Shayx Abu Ishoq Qazaruniyning (vafoti 426 yil hijriy) "Firdus al-murshidiya fil-asror as-samadiya"[9] asarida ba'zi bir Shayxlarning majlislari haqida yozgan. Bundan tashqari Abu Said Abul-Xayr-Yosir bin Munavvarning muallifligi ostida Asror at-tavhid, Farididdin Attorning "Tazkirat-ul avliyo" asarlari bularga misol bo'ladi. Aynan bir Shayxning yig'ilishlari xususida mustaqil tarzda yozilgan manbalar ham mavjud, bulardan: Ahmad al-G'azzoliyning "Majolis"[10] asari, Jaloliddin Rumiyning "Majolis saboh va fihi va fihi", Alovuddavla Simnaniyning "Chihil majlis", Nizomiddin Avliyoning "Malfuzot", "Favoid al-favoid" nomli, Ubaydulloh Ahrorning "Malfuzot hoji" shular jumlasidandir.

Sayfiddin Boxarziy ham bu so'fiylik ana'nalari yo'lidan borib o'z muridlariga majlislarda yoki Buxorodagi o'zining so'fiylik xonaqohida minbardan turib ma'ruzalar qilgan. Biroq uning yig'ilishlaridan manbalar bizgacha etib kelmagan. Faqat Shayxning minbardan aytgan ba'ziso'zlarini muridlar tomonidan yozib borilgan va ularning ayrimlari bizgacha etib kelgan, bu o'z navbatida Shayxning ma'ruzalarini yozib boruvchi muridlarning boligidan dalolat beradi. Bugungi kunga qadar bunday yozuvlar juda kam sondabizgacha etib kelganiga qaramay bu ma'lumotlar bizga ma'lum darajada Shayxning faoliyati va uning yig'ilishlarda muhokama qilgan mavzulari haqida ma'lumot olishimizga yordam beradi.

Shayx Sayfiddin Boxarziyning ma'ruzalari to'g'risida ma'lumot bergankishilardan biri - u kishinin nevaralari Abu-l-Mafohir Yahyo Boxarziydir. Alloma yozib qoldirgan ma'ruzalarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, Shayxning ma'ruzalaridan so'fiylik ta'limotining amaliy jihatlarini o'rganish mumkin va boshqa muridlar yozib qoldirgan Shayxning ma'ruzalarda aytgan nutqlarining aksariyati sufiylikning nazariy masalalarga tegishlidir. Sayfiddin Boxarziy ma'ruzalaridan Abu-l-Mafohir Yahyo Boxarziy yozgan manbalarida tasavvufning amaliy jihatlaridan biri "xidmat" haqida so'z boradi. Abul Mafoxir o'z kitobida "xidmat"ning axloqiy me'yorlari va uning zarur shart -sharoitlarga bag'ishlangan jihatlarini ochib beradi va faqirlar bilan so'fiylarga xizmat qilish majubiyatlarini tushuntirib, oxirida Sayfiddin Boxarziyning fikrlarini «A'rof» surasidagi oyatlar orqali ochib beradi. «A'rof» surasida Alloh bergan

ilmni mol-dunyo topish uchun, birovlariga ziyon etkazish yo'lida suiste'mol qilgan olimlar qattiq qoralanib, ular tillari osilib, hansirab turadigan itlarga o'xshatiladi. Va nihoyat, bu surada qiyomat kunidagi holat tasvirlanadi. U kuni kishilar uch toifaga bo'linadilar: hayotlarini iymon va yaxshi amallar bilan o'tkazgan kishilar ahli jannat; kofirlik va o'zlariga ham, o'zgalarga ham yomonlik qilish bilan o'tgan kimsalar do'zax egalari bo'ladilar; qilgan yaxshiliklari bilan yomonliklari barobar kimsalar esa «A'rof» egalari bo'ladilar. A'rof – jannat bilan do'zax o'rtasini ajratib turadigan devor bo'lib, uchinchi toifaga mansub odamlar uning ustida Alloh o'zlarini jannatgami yoki do'zaxgami hukm qilishini kutib turadi. Bu surada mana shu holatning tasviri o'z ifodasini topgani uchun «A'rof -jannat bilan do'zax o'rtasini ajratib turadigan devor» deb atalgan.

Shayx so'fiylik ta'limotining amaliy jihatlari to'g'risida fikr yurituvchi yana bir manba, “Shayxning aloqiy normalari va Shayx bilan murid o'rtasidagi o'zaro munosabat”ga bag'ishlanadi. Abul Mufaxxirning yozishicha, har bir murid Shayxga o'zini bag'ishlashi kerak (dasti irodad), u o'zining Shayxini barcha Shayxlardan ustun deb bilishi va pir sifatida qabul qilishi kerak. Shu fikrlardan so'ng u o'zining bobosi to'g'risidagi gapirib, unda Shayx Sayfiddin, shuningdek, Nishopurlik Shayx Malomatiy Abu Hafis Hadid va “Xoja tariqati”ni eslaydi.

Ma'ruza va va'z o'qish qoidalarini bo'yicha Shayxlar va'z qilishlaridan oldin Qur'on oyatlarini o'qiganlar. Va bu ma'ruzalar Qur'on oyatlari asosida o'tilishi talabi qo'yilgan. Shayx ul-Olam ham o'z ma'ruzalarini bevosita Qur'on oyatlari asosida tushuntirib borishni va har bir muhokama qilinadigan masalalarni Qur'on oyatlari asosida sharhlaganlar. Shayxning ma'ruzalarida qatnashgan muridlarning ko'pchiligi Shayxga ko'plab savollar berib va ularning savollariga javob berishda Shayx Qur'on oyatlari va hadislardan sharhlar keltirib

tushuntirgan. Bularning barchasi Shayxning ma'ruzalari mavzularini tanlashiga asosiy sabab bo'lar edi. So'fiylar majlislaridagi Shayxning bu nuqtalari bejirimligi bilan ajralib turgan. Odatda Shayxlar muhokama qilinadigan mavzuni oldindan belgilab olmas edilar. Ular tomonidan aytilgan mavzular yig'ilishning o'zida aniqlanar edi. Ularning o'ziga xosliklari shunda ediki, Shayxlar har bir savollarga javob berishda isbot sifatida Qur'on oyatlarini keltirganlar. Majlislardagi suhbatlarning eng chiroylilari so'fiylik tarixi haqidagi hikoyalar edi. Odatda bunday latif (chiroyli) majlislar tinglovchilarning jo'shqinligi va hayajoniga sabab bo'lar edi. Lekin ulamolalar Qur'on oyatlarini tarjima qilishda ko'p chiroyli, jimjimador so'zlardan foydalanishga yo'l qo'ymaganlar, uning mazmuni o'zgarishidan hayiqishgan. Shunga o'xshash nafis va go'zal majlislarda Qur'on tafsirining asoslariga bunday chuqur ma'noli iboralar to'g'ri kelmaganligi uchun ulamolalar tomonidan tanqid qilingan. Hatto ba'zi bir so'fiylar bu masalada ehtiyotkorlik bilan yondashganlar. Bunday so'fiylardan Al-ad-Davla Simnaniy (659—736 hijriy.yil.), tug'ilgan yili Sayfiddin Boxarziyning vafot etgan yiliga to'g'ri keladi. Majlislaridan biriga Al-ad-Davla muridlariga iloji boricha Qur'onni qunt bilan o'qishga harakat qilishi, latif so'zlardan foydalanishda e'tibor berishlikni ta'kidlaydi va o'zi ham majlisda ortiq bunday gapirmaslikni uqitiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Qur'on o'qishda ko'p yashirin ma'nolari bor. Agar insonning ichki dunyosi toza bo'lsa, Qur'on o'qish payti uning yashirin ma'nolari namoyon bo'ladi va nisbattan ma'nolari aniq ifodalanadi. Haqiqiy ma'nodagi Qur'on oyatlari ma'nolarini ochib beruvchi latif misralar kamdan-kam hollarda bo'ladi. Bundan oldin, men latif jumalalar yordamida oyatlarning sirli tushunchalarini topardim. Ammo Oloh barchasini biluvchidir” dedilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Afshorning Abul Mafoxir Yahyo Boxarziy. Avrad al –ahbob va fusus al-adab. T.II(Fusus al-adab). Tehron: Intishorat-i donishgohi Tehron,1345.B.3-25.
2. Ahmad al-G'azzoliy. Majolis. Nashrga tayyorlagan Ahmad Mujohid. Tehron 1376. 261
3. Birinchi marta bu risola Iroj Ofshor tomonidan nashr etilgan: Majalla-yi danishkada-yi adabiyot-i danishgohi Tehron, 4/8 (1340). 1359 yilda Savonix Ahmad
4. Boxarziy Abul Mafohir Yahyo. Avrod al ahhob fusus al adab. Iroji Afshor. Tehron. Donishgoh Tehron.1383.132-bet.
5. G'azzoliyning “Du risolai irfoni dar ishq” asariga muvofiq tarzda chop etildi.
6. Dastlab nashrga tayyorlovchi Xudobaxshi (ZDMG,57) 51 ruboiydan, keyin Said Nafasi sa'y-harakatlari bilan Majala-yi donishkada-yi adabiyot.T. II. № 4-90 ruboiy.
7. Iqbol Shoh Sijistoniy. Chixil majlisi/Najib Maila Haravi tahriri ostida. Tehron 1366. 250-bet.
8. Iroja Afshor nashrga tayyorlagan,3-nashr. (1358), 20-21 boblar. Birinchi nashr Frits Mayyor (Istambul 1943) tomnidan tayyorlangan.
9. Nashrga tayyorlovchi Iroja Afshor // Farhang-i Eroni zamin, 20 (1353). S. 316-23.
10. Ota Malik Juvayniy “Tarix-i jahonkushoyi Juvayni”. Yosir Qazviniy muharrirligi ostida. Leiden 1937, T.III. B. 9.
11. Sayfiddin Boxarziy va uning asarlari haqida.: Donishnomayi jahoni islom.T. I (1375).B.132-4.